



## O'ZBEKISTON SHAROITIDA MUQOBIL ENERGIYA MANBAALARIDAN FOYDALANISH ENERGIYA MANBAALARI TURLARI

*Farg'onan viloyati Oltiariq tuman*

*2-son kasb-hunar maktabi*

*Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

*Soliyev Murodjon*

**Annotatsiya:** O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, bozor munosabatlariga o'tish – agrosanoat tarmoqlarida energetik resurslarini tejaydigan kompleks texnologiyalarni qo'llash va ularni ilmiy asoslarini yaratish bilan aniqlanadi. Ushbu maqolada o'zbekiston sharoitida muqobil energiya manbaalaridan foydalanish energiya manbaalari turlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar;** Muqobil energiya, energiya turlari, shamol energiyasi, geotermal energiya, biomassa, biogas, quyosh energiyasi, dengiz to'lqin energiyasi.

### TYPES OF ENERGY SOURCES USING ALTERNATIVE ENERGY SOURCES IN THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

**Annotation:** economic development of Uzbekistan, the transition to market relations – is determined by the application of complex technologies that save energy resources in agro-industrial networks and the creation of their scientific basis. This article describes the types of energy sources using alternative energy sources in the conditions of Uzbekistan.

**Keywords;** alternative energy, types of energy, wind energy, geothermal energy, biomass, biogas, solar energy, sea wave energy



Hozirgi vaqtda olinadigan energiya, asosan, qayta tiklanmaydigan energiya manbalari hisobiga olinadi. Bugungi kunda tabiiy yoq'ilg'i ishlatalish miqdori dunyo bo'yicha 12 milliard tonna neft ekvivalentiga teng. Bu esa har bir kishiga taxminan 2 tonna yoqilg'i to'g'ri keladi, deganidir. Ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi 40 yil davomida butun insoniyat tarixi mobaynida qazib olingan organik yoqilg'idan ham ko'p yoqilg'i iste'mol uchun o'zlashtirilgan. Bu esa ular zahirasining tez kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. 2050-yilga borib aholi sonining 9-10 milliard kishiga yetishi energiyaga bo'lgan ehtiyojning 3 baravar ortishiga olib keladi. Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, mavjud energiya manbalaridan oqilona foydalanish maqsadida energetika tizimida muqobil energiya manbalari ulushini oshirishni talab etilmoqda.

O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan, eng avvalo quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish borasida salmoqli tajriba to'plangan bo'lib, ular yuzasidan bir qancha o'n yillar mobaynida ishlanmalar olib borilmoqda. Respublikada Markaziy Osiyoda o'xshashi yo'q ilmiy-eksperimental markaz — Fanlar akademiyasining "Fizika-Quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil qilingan bo'lib, uning tadqiqotlari natijalari jahon miqyosida e'tirof etildi.

Issiq suv va issiqlik ta'minoti uchun past potensialli qurilmalarni yaratish, elektr quvvati olish uchun fotoelektrik va termodinamik o'zgartkichlar, maxsus materiallar sintezi texnologiyalarida, materiallar va konstruksiyalarga termik ishlov berishda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari, ayniqsa faol va samarali olib borilmoqda.

O'tkazilayotgan tadqiqotlarning natijalari mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida amalda eksperimental ravishda keng ko'lamda qo'llanilmoqda. O'n yildan ortiq vaqt mobaynida respublikada quyosh energiyasi bilan suv isitadigan qurilmalar asosida uy-joylar va ijtimoiy obyektlarni issiq suv bilan ta'minlash tizimlari ishlab chiqilmoqda va ulardan tajriba tariqasida foydalanilmoqda. Toshkent shahrida, Samarqand viloyati va boshqa mintaqalarda issiq suv olish uchun gelioqurilmalar



o‘rnatilgan. Turli quvvatlardagi fotoelektrik qurilmalarni ishlab chiqarish o‘zlashtirilgan. Ko‘plab oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar kollejlarida mazkur soha uchun malakali kadrlar tayyorlab kelinmoqda.

Quyosh energiyasidan amalda foydalanish uchun O‘zbekistonda yaratilgan shart-sharoit va mavjud imkoniyatlar mazkur mintaqadan bu sohadagi ilg’or texnologiyalarni nafaqat respublikamizda, balki butun O‘rta Osiyoda tajriba tariqasida joriy etish maydoni sifatida foydalanishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

To‘plangan tajribani e’tiborga olgan holda va tadqiqotlar hamda tajriba-sanoat ishlanmalarini yuqoriroq texnik va ilmiy darajada o‘tkazishni yanada davom ettirish, jahon tajribasini hisobga olgan holda O‘zbekiston sharoitida muqobil energiya manbalaridan foydalanish borasidagi ayrim yechimlarni amalda qo‘llash, shuningdek mazkur soha uchun zamonaviy uskunalar va texnologiyalarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni tashkil qilish maqsadida:

1. Ma’lumot uchun qabul qilinsinki, O‘zbekistonda quyosh va biogaz energiyasidan foydalanishni yanada chuqurroq ishlab chiqish va amalda qo‘llash uchun ilmiy-eksperimental va moddiy-texnika bazasi yaratilgan.


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Fanlar akademiyasi va manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari bilan birgalikda, to‘plangan tajribani hisobga olgan holda quyosh va biogaz energiyasidan foydalanish sohasidagi eksperimental va amaliy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlarini amalgaloshirsin, bunda muqobil manbalardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha tajriba loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga, respublikada tegishli uskunalarni, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni, shuningdek ularga servis xizmati ko‘rsatishni tashkil qilishga alohida e’tibor qaratsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Fanlar akademiyasi, “O‘zbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasining O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining “Fizika-Quyosh” ilmiy—ishlab chiqarish birlashmasi negizida Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari



ishtirokida Toshkent shahrida Xalqaro quyosh energiyasi institutini tashkil qilish to‘g‘risidagi taklifi maqullansin.

Ayni damda metal konstruksiyasini o‘rnatish jarayoni davom etayotgan mazkur quyosh fotoelektr stansiyasi maydoni 1 gektardan oshiq maydonni egallaydi. U ishga tushirilgach, yiliga 1,9 mln. kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi va 241 ming kub metrdan oshiq shartli yoqilg‘i tejashta erishiladi.



Ma’lumot o‘rnida, mazkur ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 10-iyun kunidagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy soha ob’ektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minalash yuzasidan amalga oshirilmoqda.


Muqobil energiya – yer biosferasida to‘xtovsiz qayta tiklanadigan va insoniyat miqyosida tunganmas hisoblanadi. Ular – quyosh energiyasi, shamol, okean, daryo, yer osti konlari, bioenergiyadir. Muqobil energiyaning asosiy foydali tomoni – tunganmasligi va ekologik sofligidir. Undan foydalanish sayyoraning energiya muvozanatini o‘zgartirmaydi, ya’ni tabiat jarayonlariga ta’sir etmaydi. Bu sifatlari qayta tiklanadigan



energetika muammosini nafaqat respublikamizda, balki chet davlatlarda ham qiziqish uyg‘otish uchun omildir.

Quyosh energiyasi. O‘zbekistonda quyosh energiyasi imkoniyati hammasidan ko‘ra ko‘proq. Yalpi quyosh energiyasining imkoniyati o‘rtacha 51 mldr. t. n. e, texnik imkoniyati esa – 177 mln.t.n.e.. Bunda quyosh energiyasi butun mamlakat hududi bo‘ylab barchaga baravar bo‘lib, uni energetika balansiga jalb etish, aholini elektr va issiqlik energiyasi bilan ta’minalash masalasining, yechimini topish (ayniqsa, chekka joylarda) imkonini beradi.

Shamol energiyasi. Bugungi kunda mazkur muqobil energiya quvvatini ishlab chiqarish G‘arbiy Yevropada ancha ommalashgan. Sababi, buning uchun tabiiy shartsharoitlar mos bo‘lishi barobarida ushbu turdagি energiyaga talab ham ortib bormoqda. Zamonaviy shamol elektrostansiya (ShES)lar 3–4 m/s dan 25m/s gacha bo‘lgan tezlikdagi shamol muhiti relefiga nisbatan baland bo‘lmagan joylarda optimal ishlaydi. Shunday hududiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan Germaniya hozirgi vaqtida shamol energiyasidan foydalanish bo‘yicha jahonda yetakchilik qilmoqda. O‘zbekistonda shamol energiyasidan foydalanish hududlariga Bekobod, Qo‘qon, Jizzax, Ustyurtlarni kiritish mumkin.





Geotermal energiya – Yer yuzasi Quyosh singari issiqlik energiyasini nurlantiradi. Bu energiya geotermal energiya deb atalib, u odamlarni ehtiyojini issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlashi mumkin. Uni ishlab chiqarish atrof-muhitni ifloslantirmaydi, ya'ni ekologik toza hisoblanadi.

Biomassa – chiqindini achitish va undan hosil bo'lgan gazni yoqish natijasida olinadigan energiyadir. Amalda esa biomassa bu – chiqindi. Qurigan daraxt yoki ularning shox-shabbasi, tomorqadan poliz o'simliklarining ildizpoyalari, yog'och qobig'i va qirindilari kabilardir.

Biogaz. Odamlar biogazdan XVIII asr oxirlaridan beri foydalanib kelmoqdalar. Elektr paydo bo'lgunga qadar Londonda yer ostidagi kanalizatsiya quvurlaridan olingan maxsus gaz lampalarda ko'chalarni yoritishda foydalanilgan.

Dengiz suvining ko'tarilish va qaytish energiyasi – dengiz suvining ko'tarilish va qaytishi Oy va Quyoshning gravitatsiyasi hamda Yerning aylanishi tufayli hosil bo'ladi.

Dengiz to'lqin energiyasi – dengiz va okean yuzasida esadigan shamol tufayli hosil bo'ladigan to'qindan paydo bo'ladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, dunyodagi okeanlarning qirg'ogidagi to'lqinlar energiyasining jami 2 dan 3 milliongacha megavatt energiyani tashkil etadi.

O'zbekistonda 60 foizdan ko'proq aholi qishloq joylarida yashaydi. Shuning uchun mamlakatimizda hozirgi paytda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish dasturlariga e'tibor kuchaygan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 майдаги “2017- 2021 йилларда қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чоратадбирлари дастури тўғрисида”ги ПҚ-3012 сонли қарори.
2. 2019 йил 21 майдаги “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида”ги ЎРҚ-539 сонли Ўзбекистон Республикасининг Қонуни.



3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: «Ўзбекистон», 2017. 486. 4.
- Германович В., Турилин А. Альтернативные источники энергии. Практические конструкции по использованию энергии ветра, солнца, воды, земли, биомассы. – Санк-Петербург: Наука и техника, 2011. – 320 с.
5. Ляшков В.И., Кузьмин С.Н. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. – Тамбов: Изд-во ТГТУ, 2003. – 96 с.
6. Мухитдинов М., Эргашев С.Ф., Исакулов Ж.И. Қуёш энергиясидан фойдаланиш. – Тошкент: ДТМ, 1999. – 107 б.